

Mavzu: “Vatan himoyasi – muqaddas burch”

Darsning maqsadi:

- A) Talimiy: “Mustaqillik mohiyati, uning noyob tuyg`u ekanligi, Vatan tushunchasi muqaddas ekanligi, uning har bir qarichini qarichini asrab-avaylash burchimiz ekanligi kelajak oldidagi mas`ullik tuyg`ularini mustahkamlash. Tinch osuda hayot qadrini bilish va buning sababchilari bo`lgan fidoiy insonlar mehnatini qadrlash, O`zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tizimidagi islohatlar, ularning mard va jasur, Vatanning munosib farzandi ekanligi o`quvchilar ongiga singdirish ”
- B) Tarbiyaviy: O`z vatani bilan farhlash, uning qudratiga ishonch, kelajagi yoshlar ya`ni o`zlari qo`lida ekanligini his qilish, Vatan oldidagi burch tuyg`usini his ettirish.
- V) Rivojlantiruvchi: Berilayotgan mavzu, ma`lumotlarni teran tushhunib tahlil qilish, mustaqil munosabat bildirish va Vatan himoyasiga bugungi kunda amaliy hissa qo`shishg undash.

Dars usuli: Interfaol, Aqliy hujum, baxs-munozara.

Darsning jihozi: O`zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari, Konstitutsiyasi, Prezident portreti “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asari, “Yurtimiz jamoli – buguni, ertasi” deb nomlangan fotosend, multimediya, O`zbekiston xaritasi.

Darsning rejasi:

1. Kirish so`zi.
2. Istiqlol – buyuk ne`mat.
3. Tinch kunlar qadri.
4. Vatan ostonadan boshlanadi.
5. Vatanga qasamyod – kelajakka qasamyod.

Darsning shiori:

Tug`ilgan yeringdan ko`ngil uzilmas,
Yurtni qo`riganning yurti buzukmas. (maqol)

Darsning borishi:

O`qituvchi:

Aziz o`quvchilar darsimizni g`uru va iftixorimiz bo`lgan O`zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini kuylash bilan boshlaymiz.

(Madhiya ijro etiladi)

O`qituvchi:

Bilasizmi, hurmatli o`uvchilar siz dunyoga kela turib ota-onangiz sizni beshikka soladilar. Tilla beshikchangiz – satlabki vataningiz bo`ladi. Birinchi bor tilingiz chiqib “ona” deganingizda mana shu tuproq ham onaday srvinadi. Dunyo ham siz bilan ulg`ayadi. Endi oltin beshikchangiz ona yurtga aylanganini his qilasiz va ona vatanga tayanch bo`lasiz, uning har bir qarichini ko`zingizga to`tiyo qilib, taqrdiringizni u bilan bog`laysiz.

Bugun yurtimiz go`zal, osmonimiz musaffo! Bu nimaning sharofatidan?

*1-o`quvchi:* Yurtimizning istiqlolga erishganidan, Vatan sarhadlari ishonchli qo`llarda ekanidan.

2-o`quvchi: Yurtboshimizning odil va oqilona sifati tufayli.

3-o`quvchi: Xalqimizning birdamligi, mehnatsevarligi va ahilligi tufaylidir.

*4-o`quvchi:* Qarang vatanimiz qanday go`zal, kundan – kunga chiroy ochib, muxtasham binolar qad ko`tarilmoqda, bu albatta yurtimiz tinchligi sharofatidandir.

Mustaqillik maydoni – tinchlik ramzi.

Ona yurtim, osmoningda nur yayragay,

Go`zal bog`i-bo`stonongda gul yayragay,

Quchog`ingda ozod elim shodon ko`rib,

Istiqlolning shukufidan dil yayragay.

O`qituvchi:

Darhaqiqat, mustaqilligimizning har bir sanasi, har bir yili, har bir kuni tarix zarvaraqlariga zarhal harflar bilan bitishga arzigulik yutuqlarga boy bo`lmoqdamiz. Usgbu shonli sanalarni to`ldirga holda O`bekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil 29-dekabrdagi “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni”ni belgilash to`g`risida qaroriga muvofiq mamlakatimiz ushbu kun har yili bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda. Barchangizni ushbu tantana bilan tabriklayman.

Aytingchi, bugungi kunda Qurolli kuchlarimizning vazifasi nimadan iborat?

1-o`quvchi: Mamlakatimiz milliy manfaatlarini, chegara dahlsizligini himoya qiladi.

2-o`quvchi: qurolli kuchlarimiz urushlarga qurolli mojarolarni oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan.

3-o`quvchi: Ular harbiy birlashmalar, qo`shilmalar va qismlardan iborat.

Multimediya orqali asosiy qo`shin turlari namoyish etiladi.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni.

O`qituvchi:

Yana shuni takidlash lozimki, yutuq va Qurolli kuchlarimizdan g`urur, iftihar qilishimiz balki tinch osoyishta kunimizning qadriga yetishimiz darkor. Yurtboshimizning shunday fikrlari bor: “Mustaqillik yillarida erishgan eng katta boyligimiz – xalqimizning tinch va osuda hayoti”.

Aytish joizki, yaqinda Qirg`iziston janubida ro`y bergan fojiali voqealar va bunga xalqimizning munosabati, bag`ri kengligi, oily janoblighi va davlatimiz rahbarining oqilona yo`li yana bir bor biz kim ekanligimizni isbot qildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun va Amerika Qo`shma shtatlari Davlat kotibi Xillari Klintonlarning Respublikamiz prezidenti bilan telefonda mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi katta ekanligidan dalolatdir.

Vatan ostonadan boshlanadi, o`zbek oilasida o`g`il farzandni o`zgacha quvonch bilan kutib olishadi, oila tayanchi davomchisi, qo`riqchisi deya suyishadi, yoshligida askar bo`lishini, Vatanga xizmat qilishni orzu qilmagan yigit bo`lmasa kerak. Shu sababli yigitlarmimiz mard jasur, har ishda ilg`ordirlar. Nufuzli jahon miqyosidagi sport musobaqalarida ernilak, sheryurak o`g`lonlarimiz vatanimiz bayrog`ini yuksaklarga ko`tarishmoqda.

Sport musobaqalari asosidagi video lavha namoyish etiladi.

Foto albom ko`rsatiladi.

Ma`naviy merosimiz bo`lgan yozma yodgorliklarimiz Urxun bitiklarimizda ha “Ey, yer yigit! G`aflatda bo`lma, kechalari bedor bo`l, yurt qo`riqla, bo`lmasa, qizlarning cho`rib o`ladi”- deb hitor qilangan

Savol; Hurmatli o`quvchilar poytaxtimizda barpo etilgan “Vatan qasamyod” haykalini ziyoret qilganmisiz? Unda qanday ma`nolar mujassamlangan?” monimenti aks ettiriladi).

1-o`quvchi: Unda Vatan himoyasiga otlangan o`ktam yigit tasvirlangan. U vatanimiz ramzi bo`lmish bayrig`imizni ko`ziga surtib qasamyod qilmoqda.

2-o`quvchi: Orqa tomonda esa mana shu farzandga oq sut berib, voyaga yetkazgan Vatan timsoli bo`lgan mehribon ona tasvirlangan.

3-o`quvchi: Ona oppoq nurdan yaralgandek, qo`lini duoga ochib o`g`lining vatan himoyasidagi burchini yorug` yuz bilan bajarib kelishini duo qilib, pok oq niyatlar bildirmoqda.

**O`qituvchi:** Aytingchi, ushbu majmua sizning his-tug`yoninggizga qanday ta'sir etdi?

4-o`quvchi: “Men ham shunday mard va jasur bo`lishni hoxlayman, qarang bu yigitning ahdi qat’iy u tiz cho`kib vatanga, xalqiga qasamyod qilmoqda.

5-o`quvchi: Men esa, Vatanni himoya qilish muqaddas ekanligini va bu har birimizning burchimiz ekanligini his qildim.

6-o`quvchi: O`z fikrini quyidagi she’r bilan ifodaladi:

Davrimning hush paytlarin yuragimga jo qildim.

Navoiynind baytlarin yuragimga jo qildim.

Mirzo Bobur qaydlarin yuragimga jo qildim.

Mening bir vatanim bor, bir vatanki, bir vatan.

Bu vatan –Buxoriylar, kubrolarning vatani,

Al xorazmiy, Beruniy, sinolarning vatani,

Va men kabi el suyar Mirzolarning vatani.

Mening bir vatanim bor, bir vatanki, bir vatan.

O`qituvchi:

Demak, Vatanni astoydil himoya qilgan kishi-qahramon. Mehnatda sitqidildan o`zini ko`rsatgan va yangilik yaratgan kishi mehnat qahramoni, o`quvchilar-chi? A’lo o`qib, ustozlar hurmatiga loyiq o`quvchi ham qahramon. Ajoyib vatanparvar hisoblanadi” –deydi xalq o`qituvchisi Mamajon Abdurasulov.

Darhaqiqat:

Otaga bosh eggan topg`usi dunyo,

Otaga bosh eggan kam bo`lmas also,

Vatanga bosh eggan chaman undirar,
Unday mardga baxtni vatan undirar.
Nasib bo`ldi bizga buyuk istiqlol,
Deymiz ona-vatan doim top kamol,
Bizlar erku adolatning jarchilarimiz,
Bizlar buyuk davlatning jangchilarimiz.

(Nazarmat)

Donoxon Usmonova, Xalq ta'limi a'lochisi,
Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at
akademik litseyining ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi